

**Bo`lg`usi o`qituvchilarini tayyorlashning kasbiy kompentsiyaviy mazmuni
va texnologiyasini loyihalash**

Muhammadiyeva Nilufar Sheraliyevna

Qarshi davlat universiteti doktaranti

nilufarmhammadiyeva@mail.ru Tel:+998 91 219 85 07

Annotatsiya: Mazkur maqola mazmunida kasbiy kompentsiyalarning mohiyati va kasbiy kompentsiyalarning turlari haqida yoritilgan bo`lib, pedagogik oliy ta`lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning mazmuni va texnologiyasini rivojlantirish holati, ta`limning zamonaviy paradigmalari batafsil yoritilgan.

Kalit so`zlar: kognitiv paradigma, shaxsiy oriyentatsiya, konseptual yondashuvlar, kasbiy ta`lim, pozitsiya, ob`yekt, sub`yekt, uzlucksiz ta`lim

Kasbiy kompetensiyalarning turi va ilma-xilligini haqida oxirgi yaratilayotgan adabiyotlarda va olib borilayotgan tadqiqotlarda turli tuman fikrlarni ommalashmoqda Amma ko`pchlik adabiyotlarda asosiy kompetensiyalar 4 dan 37 gacha bo`lgan miqdorda ajratilgan. Asosiy kompetensiyalar barcha bitiruvchilar uchun zarur, ular jamiyatda inson hayotini ta`minlaydi. Asosiy kasbiy kompetensiyalar ma`lum bir mutaxassislikka mos keladi va kasbiy yoki ta`lim faoliyatida namoyon bo`ladi.A. Zimnyaya ta`kidlashicha, " Standartlarni ishlab chiqish va mehnat bozori atamalari lug`ati," da kompetensiyalarni aniqlashning to`rtta modeli aniqlangan: 1) shaxsiyat parametrlariga asoslangan kompetensiyalar; 2) topshiriq va faoliyatni bajarishga asoslangan kompetensiyalar; 3) ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishga asoslangan kompetensiyalar; 4) samaradorlikni boshqarishga asoslangan kompetensiyalar; I. A. Zimnyaya ikkinchi modelni ta`lim amaliyotiga joriy etish tarafdori. Olim buni, model shaxsning shaxsiy fazilatlari va tajribasini o`z ichiga olganligi bilan izohlaydi; o`z ishini samarali bajarishga imkon beradigan bilim, ta`lim va x.k.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Fikrimizcha tadqiqodchi, to`rtta modelni tahlil qilgandan so`ng, kompetensiyalarining aniq tizimini ishlab chiqishda barcha modellar tarkibini integratsiyalashuvidan foydalanishingiz lozim. Biz o`z pozitsiyamizni quyidagicha asoslaymiz:

1. Shaxsga yo`naltirilgan paradigmada, shaxsiy komponentlar mustahkamlanishi lozim.

2. Ijtimoiy va ishlab chiqarish muammolarini hal qilish, harakatlarni amalga oshirish uchun nafaqat tajriba, ma`lumotga ega bo`lish, balki o`z faoliyatizingizni xamda o`zgalar faoliyatini boshqarishga tayyor bo`lishingiz kerak.

A. Zimnyaya kompetensiyalarning uchta asosiy guruhini nazariy asoslab, ularda 10 ta kompetensiyani birlashtirib, quyidagicha nomladi: “Faoliyat, muloqot subyekti sifatida bevosita shaxsga bog`lik kompetensiyalar”:

-salomatlikni muhofaza qilish kompetensiyalari: sog`lom turmush tarzi qoidalarini, shaxsiy gigiena qoidalarini, jismoniy madaniyatni bilish va ularga rioya qilish, turmush tarzini tanlashda erkinlik va mas`uliyat;

-dunyoqarash yo`nalishidagi kompetensiyalar: borliqni, o`z mamalakati hayoti, madaniyati, diniy qadriyatlarini xis etish;

-integratsiya kompetensiyalari : to`plangan bilimlarni tizimlashtirish, vaziyatga mos ravishda yangilash, kengaytirish;

-fuqarolik kompetensiyalari: fuqaroning huquq va majburiyatlarini bilish va ularga rioya qilish, erkinlik va mas`uliyat, o`ziga ishonch, fuqarolik burchi, davlat ramzlari bilan faxrlanish;

-o`z-o`zini takomillashtirish kompetensiyalari: kasbiy malakalarni doimiy ravishda oshirish, ona tili madaniyatini egallash, chet tilini mukammal bilish.“Shaxs va ijtimoiy muhitning o`zaro ta`siri bilan bog`liq kompetensiyalar”:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

-jamiyat, jamoa, oila, do`stlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish, nizolarni bartaraf etish, hamkorlik, bag`rikenglik v.x.k

-og`zaki va yozma nutq, dialog, monolog, an`analarga rioya qilish, odob-axloq kompetensiyalari.

“Inson faoliyati bilan bog`liq kompetensiyalar”:

-Kognitiv faoliyat kompetensiyasi: kognitiv vazifalarni belgilash va hal qilish, nostandard, muammoli qarorlar qabul qilish.

-faoliyat kompetensiyalari: o`yin, o`qitish, mehnat, vositalar, faoliyatni rejalashtirish va prognozlash usullari, tadqiqot faoliyati, turli faoliyat turlariga yo`naltirish;

-axborot texnologiyalari kompetensiyalari : qabul qilish, qayta ishlash, ishlab chiqarish, axborot transformatsiyasi, multimedia texnologiyalar, internet texnologiyalari.

I.M Osmalovskayaning qarashlarini tahlil qilib, shaxsning zamonaviy jamiyatda faol bo`lishga imkon beruvchi eng muhim kompetensiyalarni sanab o`tamiz:

umumiyl madaniy – milliy va umuminsoniy madaniyatning o`ziga xos xususiyatlarini bilish, madaniy merosni o`rganish, gigiyena va xavfsiz hayot qoidalariga rioya qilish, ichki ekologik madaniyat, hordiq chiqarish madaniyati bilish, savodxon bo`lish;

-tarbiyaviy va kognitiv-nostandard vaziyatlarda harakat qilish usullarini, muammolarni hal qilishning evristik usullarini bilish, turli manbalardan ma`lumot olish usullarini o`zlashtirish;

- tashkiliy - mehnatni ilmiy tashkil etish malakalarini egallash;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

-maxsus - axborot texnologiyalari savodxonligi, axborotni olish va qayta ishlash usullarini bilish, odob-axloq qoidalari asoslarini bilish.

Alohida kompetensiyalar guruhi o'qituvchining quyidagi ijtimoiy-kasbiy kompetensiyalarini o'z ichiga oladi:

-ijtimoiy kompetensiyalar - shaxsning ma'lumot almashish, o'z ehtiyojlari va manfaatlarini e`lon qilish, boshqa odamlar va ularning fikrlariga nisbatan bag'rikenglik ko`rsatish, ma'lum bir hissiy barqarorlikka ega bo`lish, boshqa odamlarga turli xil yordam ko`rsatish, jamoaviy ishda qatnashish va h.k;

-kognitiv kompetensiyalar – axborotni mustaqil qayta ishlash, diqqatini o'qish yoki ishlashga jamlay olish, o`zlashtirilgan ta'lim usullarini yangi vaziyatlarga o'tkazish, axborot manbalarini topish, axborotni mustaqil qayta ishlash, tuzish va h.k;

-operatsional kompetensiyalar – ishning maqsadi va tartibini aniqlash, noaniqlik vaadolatsizlikka qarshi qarorlar qabul qilish va amalga oshirish, ish natijalarini umumlashtirish, ish vaqtini belgilash va h.k;

-maxsus kompetensiyalar - muammolarni hal qilish usullarini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, kasbiy faoliyatga ega bo`lish, yangi vaziyatlarga moslashish, rejalar ni baholash va tuzatish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning adekvat usullarini topish.

A. A. Kiva, V. P. Koserev, A. N. Kuznetsov, kasbidan qat`i nazar, insonga kerak bo`lgan umumi kompetensiya turlarini aniqladi. Ularning mazmuni kasbiy ahamiyatga ega bo`lgan shaxsiy xususiyatlar, kasbiy va ijtimoiy amaliyotda zarur bo`lgan xatti-harakatlardan iborat. Pedagogik faoliyat bilan bevosita bog`liq bo`lgan kompetensiya turlarini sanab o'tamiz:

-maxsus kompetensiya - ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, kompyuter va orgtexnika bilan ishlash qobiliyati;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

-shaxsiy kompetensiya – o‘z mehnat faoliyatini rejalashtirish, qaror qabul qilish, nostandart yechimlarni topish, fikrlashning moslashuvchanligi, yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash qobiliyati;

-individual kompetensiya - muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, muvaffaqiyat manbai, o‘z ishining sifatiga erishishga intilish, o‘ziga ishonch, optimizm.

S.G. Molchanov o‘qituvchining har qanday kasbiy kompetensiyasi to‘rt komponentdan iborat ekanligini aniqladi:

- 1) davlat va jamiyat tomonidan talab qilinadigan va ijtimoiy institutlar, masalan, oila, jamoatchilik tomonidan baholanadigan ijtimoiy komponent;
- 2) ta`lim sohasidagi pedagog va yetakchi xodimlar tomonidan talab qilinadigan va kasbiy hamjamiyat tomonidan baholanadigan ijtimoiy-professional komponent;
- 3) ma`lum bir tashkilot tomonidan talab qilinadigan va ta`lim makonining mazmuni va mavjud ta`lim tizimi tomonidan baholanadigan professional komponent;
- 4) kasbning shaxsga qo`yadigan obyektiv talablari bilan baholanadigan shaxsiy komponent.

O.E. Lebedevning fikricha, "Kompetensiyaga asoslangan yondashuv - bu ta`lim maqsadlarini aniqlash, ta`lim jarayonini tashkil etish va ta`lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari"dir.

Shunday qilib, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida oliy ta`lim muassasalarida, kasb-hunar ta`limi muassasalarida, maktabgacha pedagogika va psixologiya bo`yicha kollej o‘qituvchilarini tayyorlash texnologiyasining mazmuni va ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega:

Xulosa qilib aytganda, o`qituvchi uchun kompetensiyaga asoslangan yondashuv uning bilim, ko`nikma, intellektual qobiliyatlarini o`zida mujassamlashtirib, unga innovatsion faoliyatni amalga oshirish, zamonaviy ta`lim texnologiyalarini amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati (References)

1. G. O. Ochilova “Kasbiy kompetentlik” o`quv qo'llanma T.: «Innovatsion rivojlantirish nashriyot maatba uyi» 2021. 228 bet
2. Axmedova Mukarram Tursunalievna “Pedagogik konpetentlik” uslubiy qo'llanma T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018 - 80 bet.
3. N. A. Muslimov, M.X. Usmonboyeva, D. M. Sayfurov, A.B. Turayev “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” T.: 2015. 120 bet
4. M. M. Axmetjanov “Kasbiy ta`lim metodikasi” darslik Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdonha nashriyoti, 2020. 456 bet.
5. A. R. Xodjaboyev, I. A. Husanov “Kasbiy ta`lim metodologiyasi” T.: «Fan va texnologiya» 2007. 192 bet.